

MUALLIM — KELAJAK SHAMCHIROG'I

Abdivaxobova Mastura Abdurauf qizi

CHDPU Turizm fakulteti XTA 22\4

Annotatsiya: *O'qituvchilik — sharaflı kasb. Har bir g'alaba ortida ustozning mehnati bor*

Kalit so'zlar: *O'qituvchilik, muvaffaqiyat, bola, ilm, muallim, o'quvchi, ustoz*

Har bir muvaffaqiyatning ortida kimningdir mehnatlari yotadi. Albatta, bu muvaffaqiyatlarning ortida ustozning o'рни beqiyosdir.

O'qituvchilik – bu hammaning ham qo'lidan kelmaydigan kasb, chunki bu kasb juda ko'p kuch, sabr, matonat talab qiladi. Muallimlikni bitta daraxt deb olsak, boshqa kasblar uning hosilasi bo'ladi. Endigina maktabga chiqqan paytingizni eslang. Na yozishni na o'qishni bilardingiz. Sizni savodingizni chiqargan, odob-axloqni o'rgatgan, oq-qorani tanitgan ham mana shu ustozdir.

Ustoz - bola uchun ham ota, ham ona, ham yaqin do'st, sirdosh bo'lishi kerak. Ustoz qo'l ostidagi har bir o'quvchini o'z bolasidek yaxshi ko'rib, unga mehr bilan bilim berishi, sabr bilan unga toqat qilishi bu shunchaki oson narsa emas. Nobel mukofoti sovrindori Abdus Salam shunday yozadi

"Hech kimning 30 nafar farzandi yo'q o'qituvchida esa bor. Hamma o'z bolasini sevadi. O'zganing bolasini sevish, unga ta'lim-tarbiya berish esa har kimning ham qo'lidan kelmaydi.

Buning uchun insonda katta yurak bo'lishi kerak" - deyilgan.

Darhaqiqat, begona ya'ni bironing bolasini o'zi uchun yangi bo'lgan kichik bir kashfiyotni o'z olamiga olib kiradi va undan so'ng uni yangidan kashf qiladi. Yildan yilga o'zidagi bor bilim salohiyatlarni berib o'quvchini kamolga yetkazadi. O'quvchilik yillari sen uchun jon kuydirgan, o'qimishli, elga foydasi tegadigan yaxshi inson bo'lsin deguvchi ustozlarning qadriga yetmaymiz. Lekin hayotning katta yo'lida ularni ko'proq sog'inadi kishi.

1997-yildan buyon 1-oktabr " O'qituvchi va murabbiylar kuni " sifatida nishonlanayotgani ustozlarimizga bo'lgan hurmat, ehtirom, e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sharaflı kasb egalari mana yillar o'tdiki el ardog'idadir. Har yili o'qituvchilarga berilayotgan imtiyoz va rag'batlar buning isbotidir.

Bolalarni seva olmagan kishidan ustoz chiqmaydi.

Bu qanchalik to'g'ri?

To'g'ri, bolalarni sevish, unga mehribonlik bilan nimanidir o'rgatish har kimning ham qo'lidan kelmaydi. Hatto shunday payt keladiki, sizning eng xavfli, yomon ko'rgan dushmaningizning farzandi sizni yoningizga ilm olish uchun kelsa, uni chetga surishga, befarq qoldirishizga haqqingiz yo'q bo'ladi. Ilm olishni igna bilan quduq

qazishga o'xshatishgan. Shunday mashaqqatli ishni bajarishda ustozning o'рни beqiyosdir.

Payg'ambarimiz (S.A.V) bir hadisi sharfda bilim va hunarni boshqalarga o'rgatuvchi insonlar haqida " Albatta, farishtalar, samovot ahli, hattoki, kavakdagi chumoli, dengizdagi baliqqacha barchalari insonlarga yaxshilik o'rgatuvchi kishi haqiga salovat-duo aytib turadilar." , deb marhamat qilganlar.

Ilm olish va uni tarqatish yuksak savobli ish ekani to'g'risida Qur'oni Karimda, hadisi sharifda ham ko'plab oyat va hadislar kelgandir.

Shunday ekan o'quvchi yoshlar, talabalar va barchamiz ustozlarni qadrlab, doimo ularga hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz lozim. Ustozlar bebaho boyligimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://religions.uz>

2. <https://kun.uz>

3. <https://m.aniq.uz>